

QIZLAR TARBIYASI

Islamova Gulsara Utashevna
Toshkent viloyati Chirchiq shahar
1-umumiy o'rtta ta'lim maktabi o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada qizlar tarbiyasi haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Qizlar, idorayi baytiyya, ta'lim-tarbiya, kitob, ayol

Qizlarimiz tarbiyasi, ularni mustaqil hayotga tayyorlash, zamonaviy bilim va hunarlarni egallashi, ish joyiga ega bo'lishi, jamiyatda munosib o'rnini topishiga alohida ahamiyat berishimiz zarur.

Shavkat Mirziyoyev

Qizlar odobu ahloqli bo'lish, uy tutish, ro'zg'or ishlarini reja bilan olib borish, bekalikni, onalikni o'rniga qo'yib ado etish, umuman ayollik vazifasini bajarish uchun nimalarni bilishlari kerak? XIX asr oxiri va XX asr boshlarida yashab ijod etgan taniqli turk olimi va mashhur ma'rifatparvari Aliy Nazimoning "Qizlar tarbiyasi" nomli ushbu kitobidan ana shu savollarga javob topishingiz mumkin.



Ayollarning ilm o'rganishlari, bilimli bo'lishlari yaxshimi yoki bo'lmasa yurt tutish to'g'risida lozim bo'lgan, uni qilmay qolish hech mumkin bo'lmagan bir necha xizmatlarni o'rganishdan boshqa ma'lumotlari bo'lmaganimi? Qanday ajib savol? Bu savol ayollarni xo'rlash uchun berilganini so'zlab, unga qarshi ushbu ravishda javob

berurmiz. Yosh bir qiz to'g'ri, mustahkam, keng, hatto yoshi musoid (qulay) bo'lsa, to'liq bir ravishda ta'lim-tarbiya ko'rsin, aqlning quvvatiniyu zehniki kengaytirish to'g'risida undan hech bir narsa qizg'anilmasin. Odamlar yer kabi o'z holiga tashlansa, o't-o'landan boshqa hech bir narsa bo'ldira olmaslar. Erlar kabi ayollar ham anglamoq, bilmoq uchun aql, tuzuk qilmoq uchun bir fikru niyat, qarshi turmoq yoki bardosh bermoq uchun iroda va ezgulik egalaridirlar. Shunday bo'lgach, hech narsa o'rganmay ishlarning hammasini qilmoqlari o'zlari uchun oson bo'lurmi? Ayollar qila turgan ishlarning har biri butun odamlar umrining negizidir. Haqiqatda ham yurtlarni xarob etgan yoki yaxshi tutgan, yurt narsalarining har birini o'rniga qo'ygan, uy ichida bo'lgan jamoalarga aloqador ishlarning har birini o'rnida yuritgan ayollar emasmi? Shunday ekan, ilm o'rgangan, tarbiya ko'rgan bir qizning o'z ishlarini yaxshi va o'rnida bajara oluviga ishonish kerakdir. Yurt jamoalarining yaxshi tarbiya qilinuvi, salomatligi va onalikning, zavjalikning ado qilinuvi, yurt ishlarining ko'rkam suvratda yuritiluvi uchun qizlarga mustahkam va to'g'ri bir ravishda ilmu tarbiya o'rganuv lozimdir. Endi xonim qizlarga aytamiz: tirishingiz, vaqtni o'tkazmay, aqlu zehningizni o'tkir qilingiz, qaysinisi ikki shart birladir. Birinchisi: o'quv va bilimingiz butun ustingizda bo'lgan ishlarning birinchi darajalisi qizlik, ayollik, yosh onalik kabi ishlaringizga hech bir kamchilik keltirmasin. Ikkinchisi shuldirdiki, bilgan narsalaringiz uchun hech bir vaqt mag'rur bo'lmangiz va uni hamon o'rganishga tirishingiz. Bu ikki shartni o'rniga qo'ya olsangiz, ilmu kamol egalari bo'lursiz va buning uchun hech kim sizni ayb etmas.

KITOB O'QISH

Kitob o'qish eng huzurli, eng go'zal yupanchlardan bo'lgani kabi zehn orttirmoq, ilmu ma'rifat hosil qilmoq, xullas, ilmu tarbiya o'rganmoq uchun juda kerakli bo'lgan ishlardan biridir. Bir yaxshi kitob o'qish ila qayg'ular tarqaladir, lekin avvalo shuni aytamanki, bizning uchun to'g'ri-yu, durust kitoblar ko'rishdan foydaliroq hech narsa yo'q. Agar yaxshi kitob qanday tanlanadi deb so'rasangiz, sizga shunday javob beramiz: "Zehnlaringizni tuzatgan, kerakli ishlarimizni bizlarga bildirgan va sezdirgan, bizni ko'rkam xulq egasi bo'lishga undaydigan kitob yaxshi kitobdir. Buning aksi bo'lib, bizda buzuvchi fikrlarni uyg'otadigan, yovuz yomon hulqlarni ko'rkam hulqlar kabi ko'rsatadigan, bizni yolg'on o'ylarga boshlab, to'g'ri o'ylardan chalg'itadigan kitob esa, yomon kitobdir. Uni tezda qo'ldan tushirmoq kerak. Biroq yosh qizlar onalaridan yashirin o'qish niyatida bo'lgan asarlarni-da o'qishi kerak emasdir. Kichkina xonim qizlar, agar mendan qanday kitob o'qish kerak, deb so'rasangiz, sizga shu suvratda javob beraman: "Muallifning ilmi adab va ahloqda o'rnak olishga yararlik bo'lgan asarlarini o'qingiz. Uni sanab tugatib bo'lmas ko'p foydalari bordir".



YURT TUTA BILMOQ

Qilich tutgan sarkardadan igna ushlagan ayol afzaldir. (Sharq hikmatlaridan)

Uy ishlari, uydagi jamoalarga qarash bir hunar bo'lib, bu ayollarning vazifasi bo'lgani uchun yosh qizlarning birinchi galda uni o'rganishga kirishuvlari juda lozimdir. Shul hunarni "idorayi baytiyya" deydilar. Bu hunarni o'rganuvdan maqsad, mumkin qadar oz xarajat ila ko'p boyligu mol topmoq bo'lgani kabi, bu hunarni o'rgangan ayol o'ziga lozim bo'lgan reja ila ish qilmoq, ehtiyotkorlik, poklik, ko'rkam tartib, ishchanlik, yurt foydasiga tirishmoq kabi bir necha xosiyatlarni-da bilur. Biz bu o'rinda yuqorida yozilgan xosiyatlarning birinchisi bo'lgan reja bilan ish tutmoq va bo'lgan kirimu chiqimlar to'g'risida so'zlayajakmiz. Yurtingizda bir komil tuzuklik bo'lishini istaysizmi? Unday bo'lsa, tubandagi nasihatlarini tinglangiz. O'zingizga bir hisob daftari tutingiz. Agar aniq bo'lsa, daromad-kirimingizning borini shul daftarga yozingiz. So'ngra bir yilda qancha xarajat qilish kerak bo'ladi, shuni yozingiz, lekin kela turgan kirimingizni yozganda, boy bo'lmasangiz, kelgusi kunda juda boy bo'lish umidi ila yanglishmaslikka harakat qilingiz. Harajatingizni umid qilganingiz qadar emas, qo'lingizdagi boyligingizga qarab tutingiz. Bir yil ichida qancha tutajagingizni bilsangiz, faqirlarga berajak sadaqalaringizni-da unutmay, borini tamom bo'lingizki, oyda yoki kunda qancha aqcha sarflashingizni ko'rursiz, kela turgan daromadingizni hisoblagandan so'ng (agar bo'lsa) fotir (fitr bo'lsa kerak) haqi, yemoq-ichmoq, ust-bosh xarid qiluv uchun ishlatuvchi harajatingizni tayin qilingiz, ham uni hech kechiktirmaslikka tirishingiz. Agar kela turgan kirimingiz kerak yaroqlaringizga yetmaydigan bo'lsa, ishlangiz, aqcha topingiz, bir kishi hech narsasi bo'lmaganligi ila faqir bo'lmas, bori ishlamaganligi ila faqir bo'lur. Ish tirishgan kishini har vaqt tarbiya qilur, saqlar. Agar ortiq chiqimlaringiz ila kissangizdan chiqa turgan behuda aqchalardan ko'z yumsangiz, buning tabiiy natijasi bo'lgan qarz olishga majbur bo'lursiz hamda erksiz qarzdor bo'lib qolursiz, bu vaqtda sizga ko'p ziyon bo'lur. Yurt

tutuvda bir kichkinagina qarz kiyimdagi yirtiq kabidir. Hozir ko‘rinar-ko‘rinmas bo‘lsa-da, yamalmasa, bora-bora zo‘rayar. Al-hosil, kuchingiz yetgan qadar qarzni to‘lab olingiz, yaxshi qilgan bo‘lursiz. Endi tutilgan harajat daftaridan bahs qilaylik. Bir uyda yurt boshi bo‘lgan ayol tutilgan harajatlarni kunnikini kuniga yozib qo‘yadir, ming turli mehnatu mashaqqatlar ichida bo‘lsa-da, bir kun ichida tutilgan aqchani bir kichkina daftarga yozib qo‘ymay, uyquga yotmaslikka odatlanishi lozim bo‘lur. Yurt boshi bo‘lgan ayol g‘aflatda qolib, tutgan harajatini yozib qo‘yishni unutmashligi uchun mazkur daftarni bo‘lmasida, ko‘z oldida, yaxshisi kissasida olib yurishi kerak bo‘lur. Qaysi vaqtda yurt tutishga, ishni rejalab ishlashga tirishmagan ayollarning: "Kishi qilgan harajatini kunnikini kunda daftarga yozib qo‘yuvi nega kerak, qancha tutilganini ko‘rib qo‘rqish uchunmi, tutilgani uchun bitgan narsa hech qayta o‘rniga kelmaydir", degan so‘zlari eshitilsa-da, bu fikr to‘g‘ri fikr emasdir, yanglish va xatarli ekani ko‘rinib turadir. Kishi tutgan chiqimlarini yozib qo‘ysa, kissasidan chiqqan aqchasining sonini bilib turur, bir hafta orasida tutilgan aqchani soni ul haftada tutishga tegishli miqdordan ortsa, aqchani reja bilan tutuv yo‘li o‘ylanur. So‘ngra eri kissasida hech aqcha qolmaganini ko‘rib ajablansa, yurt tutuvchi ayol unga sotib olingan narsalarni va bularga ketgan aqcha ila yemoq ichmoqqa tutilgan aqchalarning sonini yozgan daftarini ko‘rsatur. Qaysi bir ayollar tutgan harajatlari uchun daftarlarida xillariga qarab fasllar ochadilar. Masalan: kiyimlar, non, go‘sht, un, guruch, yog‘ va boshqalar uchun maxsus varaqlar ajratadilar. Yil to‘lgandan so‘ng barini jamlab hisoblab chiqadilar, bir yoqda daromad, ikkinchi yoqda xarajat yozilgan bo‘lur. Mana shu vaqtda ayol (oila, oila a‘zolari) onasi uchun baxtli yoki bo‘lmasa bir qayg‘u vaqti bo‘ladir. Agar harajati daromadidan ortiq bo‘lsa, uning holiga voy! Yurti juda tez haroblikka uchraydir. Agar buning aksicha chiqsa, daromadning harajatdan ortgani qo‘lida qolgan bo‘lsa, eri yoki bolalari uchun bir kerak narsa sotib olish lozim bo‘lgan taqdirda rejalab tutib yig‘gan aqchasini tutsa, qanday yaxshidir. "Kirimidan ortiq tutmoq bir aqlsizning ishi, butun kirimini tutib bitirmoq ham bir aqlsizning ishi, kelaridan oz tutuv bir aqllining ishidir", degan odamlar juda to‘g‘ri aytganlar. Daromad ila harajatni hisoblab ko‘rgandan keyin er ila ayol bir qarorga kelib olurlar. Agar daromadu harajatda kamomad bo‘lsa, uyda tutilajak harajat uchun undan bundan chiqara oluvlarini tekshirib ko‘radilar. Har ikkisi kerakmas narsalar sotib olmaslikka, juda kerak bo‘lmaganda hech aqcha tutmaslikka ahd qilurlar. Mazkur kamomadni kelgusi yil daromadining harajatdan ortgani bilan qoplashni umid etadilar. Xonim qizlar, sizlarda naq shunday usulda ishlangiz, sizlarda qaysidir harajatlaringizni yoki bo‘lmasa kiyinurga, ziynatga, kerakli mayda narsalarni sotib olishga berilgan aqchani, kundagi harajatlarni bir kichkina daftarga yozib qo‘yib, yosh vaqtingizdayoq hisobni o‘rganingiz.

Foydalanilgan adabiyot:

1. Aliy Nazimoning "Qizlar tarbiyasi"